

## TARIXIY VA DINIY MANBALARDA ABU MANSUR AL-MOTURIDIY OBRAZI TALQINI

Bobojanov Alisher

Qoraqalpoq davlat universiteti o'qituvchisi

Mustaqillik yillaridan boshlab, buyuk tarixiy shaxslar, allomalar hayoti va faoliyatini, ilmiy-ijodiy merosini chuqur o'rganish va uni yoshlar orasida keng targ'ib etishga alohida e'tibor berila boshlandi. O'zbek adabiyotining yirik yozuvchi va shoirlari, tarixchilar, din arboblari tomonidan tarixiy ajdodlarimiz siymosi aks etgan asarlar kitobxonlarga havola etilmoqda. Ayniqsa, istiqloq davri o'zbek nasri solnomasida tarixiy asarlar sezilarli darajada ko'paymoqda. Xususan, Erkin Samandarning "Pahlavon Mahmud Puryoyvaliy", "Sulton Jaloliddin", Asad Dilmurodning "Pahlavon Muhammad", Sadulla Siyoyevning "Ahmad Yassaviy", Omon Muxtorning "Navoiy va rassom Abulxayr", To'liq Hayitning "Buroq vodiysi yoxud Bahouddin Naqshband qissasi", Luqmon Bo'rixonning "Imom Moturidiy", Isajon Sultonning "Alisher Navoiy", "Beruniy", "Bilga xoqon" va boshqa tarixiy biografik romanlari shular jumlasidandir. "Tasavvuf adabiyotini o'rganmasdan turib, o'rta asrlar musulmon Sharq madaniy hayoti haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin emas. Bu adabiyotdan xabardor bo'lmasdan Sharqning o'zini ham anglash qiyin", – degan edi Ye.E.Bertels. Uning fikrlari ham yozuvchi, ham tadqiqotchilar oldiga ana shunday siymolarni o'rganish va targ'ib etish mas'uliyatni yuklaydi.

Bugungi o'zbek nasrining iste'dodli vakillaridan biri Luqmon Bo'rixonning tarixiy mavzudagi "Imom Moturidiy" romani va undagi Moturidiy obrazi o'zbek adabiyotidagi buyuk ulamo haqidagi dastlabki yaratilgan romanligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Adib, Imom Moturidiy shaxsi orqali inson va jamiyat o'rtasidagi mukammallikka, o'z-o'zini isloh qilish, tarbiyalashga da'vat etganligi namoyon bo'ladi.

Tarixdan ma'lumki, Movarounnahr, ayniqsa, uning madaniy va ma'rifiy markazi bo'lgan qadimiy Samarqandda ko'plab jahonga mashhur allomalar yetishib chiqqan. Ular islom dini bo'yicha o'zlarining sermahsul asarlari bilan o'rta asrlarda butun islom dunyosiga ma'lum va mashhur bo'lishgan. Jumladan, Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Hanafiy Moturidiy Samarqandiy. Tarixchi olimlar uning nomini tabarruk nom bilan eslashadi. U IX-X asrlarda Movarounnahrda somoniylar hukmronligi davrida yashagan bo'lib, tafsir, fiqh, aqida ilmlariga oid "Kitobut tavid", "Ta'vilatul Qur'on" va "Pandnoma" kabi noyob kitoblar bitgan. Imom Moturidiy 870-944-yillarda Samarqandda yashaganligi, u yerdagi mashhur Chokardiza qabristoniga dafn etilgani tarixiy manbalardan ma'lum. Islom olamidagi yuksak xizmatlari uchun Imom Abu Mansur Moturidiyga musulmonlar tomonidan oliy unvonlar berilgan. Xususan, o'rta asrlarda turli firqa va toifalar o'zlarining buzg'unchilik harakatlari bilan ahli sunna val jamoa mazhabiga tahdid solganida Abu Mansur Moturidiy uning himoyasiga turgani uchun "Musahhihu aqiydata ahli-sunna", degan sharaf, ya'ni "ahli sunna aqidasini to'g'rilovchi" unvon berilgan, shuningdek, Islom olamida "Imom al-huda" (hidoyatga boshlovchi imom), "Rais ahli sunna val jamoa" (ahli sunna val jamoa imomi), "Xurofot va bid'atga botgan uydirmalarni ildizi bilan qo'poruvchi", "Musulmonlar aqidasini isloh etuvchi" kabi yuksak e'tiroflar bilan atalgan. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari ham o'zining "Nasoyim ul-muhabbat" asarida: "Shayx Abu Mansur Moturidiy" o'z zamonining a'lam ulamosi erinish. Ul vaqt ulamosi alarni "Sultonul muizzin" der erinishlar. Zohir va botin ulumlari bila orasta erinishlar [1; 25-bet]", deya allomaning benazir salohiyat egasi ekanligiga alohida urg'u bergan. Ya'ni Imom Moturidiy o'z davrining eng bilimdon, ilmi kishisi bo'lgan. Shuning uchun ham shu davr allomlari u kishini "Azizlar sultoni" nomi bilan atashgan. U barcha ilmlarni yaxshi o'zlashtirgan. "Imom Moturidiy o'z zamonasining eng buyuk allomalaridan biri sifatida tan olinib, barcha uning ilmu ma'rifatiga tahsin aytib, uning ta'limoti ziyosini ko'zlariga to'tiyo aylaganlar. Shu bois, Imom Moturidiy nafaqat unga xayrixoh kishilar, balki raqiblari nazdida ham "Imom ahli sunna val jamoa"

(“Sunnat va jamoaning imomi”), “Imomul hudo” (“To‘g‘ri yo‘lga boshlovchi imom”) degan eng oliy unvonga sazovor bo‘lib, kalom ilmida o‘ziga xos mo‘jiza sifatida dovrug‘i tillarda doston bo‘lgan” [1; 26-bet] – deya ta’kidlagan taniqli tarixchi Tamimiyning u haqdagi fikrlari diqqatga sazovor. Abul Muin Nasafiy “Tabsiratul-adilla” asarida Moturidiy vafot etganida uning shogirdlaridan Abul Qosim Hakim Samarqandiy uning qabr toshiga mana bu bitiklarni yozdirganligini aytadi: “Bu qabr nafaslari miqdoridagi ilmlarni o‘zida jam etgan, bor kuchini u ilmlarni tarqatish va o‘rgatish bilan tugatgan, shuning uchun diniy asarlari maqtovg‘a sazovor bo‘lgan va o‘z umridan serhosil mevalarni olishga erishgan zotning qabridir”.

Ibn Zakariyoning “Sharh juma-l-usuli-d-din” asarida bir rivoyatda keltirilishicha, faqih Abdussamad ibn Ahmad Arbinjoniy Abu Mansur Moturidiy vafot etganda Abu Bakr Iyodiy quyidagi so‘zlarni aytganini keltiradi: “Diniy ilm va hukmlarni o‘rgatishda bu ummatning olimlari o‘tgan payg‘ambarlar kabidir. O‘tmishda bir payg‘ambarning davri tugab, yechilishi kerak bo‘lgan masalalar paydo bo‘lsa va u masalalarni ochib beruvchi biror olim qolmasa, yangi bir payg‘ambar yuborilganidek, bu ummatning orasida ham har asrda vafot etgan faqihlarning o‘rniga yo yangi olimlar keladi yoki qiyomat boshlanadi. Chunki Alloh o‘z bandalarini yo‘l ko‘rsatuvchilardan mahrum qilmaydi”.

Darhaqiqat, Imom Moturidiy nafaqat Markaziy Osiyoda, balki butun islom olamida o‘z munosib o‘rniga ega bo‘lgan diniy arboblardan hisoblanadi. U asos solgan Moturidiya aqidasi Qur‘on, hadis va aql-idrok, mantiq va haqiqatga yaqinligi bilan boshqa ta‘limotlardan farqlanadi. Abu Mansur Moturidiy o‘z ta‘limotida islomda o‘ta muhim bo‘lgan bag‘rikenglik, mo‘tadillik va insoniylikni targ‘ib qiladi.

Abul Muinning “Tabsirat al-adilla” kitobidagi keltirilgan faktlar ham uning islom olamidagi ilmining mavqei baland bo‘lganligini dalillaydi. Asarda keltirilishicha, agar Abu Mansur Moturidiy ustoz Abu Nasr Iyodiyning darsida ayrim sabablarga ko‘ra ishtirok etmay qolsa, yoki kechiksa, hatto, ustoz o‘z shogirdiga nisbatan cheksiz hurmati va muhabbatining izhori sifatida o‘sha darsda hozir bo‘lmaguncha biror so‘z ham aytmas ekan. Agar u Moturidiyni uzoqdan bo‘lsa-da, darsga kelayotganligini ko‘rib qolsa, xursandligidan taajjub bilan unga tikilib qolar va Qur‘ondan qasos sur‘asi 68-oyatni o‘qir edi [2; 35-bet]. (Oyatning ma‘nosi: Rabbingiz O‘zi xohlagan narsani yaratuvchi va (xohlagan ishni) ixtiyor qiluvchi...)

Abu Nasr Iyodiy vafotidan keyin “Dorul Juzjoniy”da Imom Moturidiy ham uzoq yillar mudarrislik qiladi, ko‘plab shogirdlar yetkazadi. Darhaqiqat, Moturidiy Abul Hasan Ali ibn Said Rustufag‘niy kabi shogirdlariga Imom Muhammad Shayboniyning “al-Mabsut” ini o‘qitarkan, yuz yoshga yaqin umr ko‘rib, vafot etdi [3]. Imom Moturidiyning fikrlari Abul Hasan Ali ibn Said Rustufag‘niy, Abu Salama Samarqandiy va Ibn Yahyo kabi olimlar tomonidan davom ettirildi. Uning shogirdlari nafaqat ustozidan o‘rgangan fikrlarni o‘rgatgan, balki u yaratgan kitob va karomatlarni boshqalarga yetkazishgan. Bundan tashqari, Abul Yusr Pazdaviy (vaf. 493/1100 y.)ning “Usulud din” nomli asarida keltirilgan quyidagi ma‘lumot ham buni tasdiqlaydi: “Zohid imom Abu Mansur Moturidiyning Ahli sunna val jamoa mazhabi asosida yozilgan tavhid ilmiga doir bir kitobini ko‘rib chiqdim. Abu Mansur Moturidiy Ahli sunna val jamoaning raislaridan biri bo‘lgan. Shayx va imom otam hamda zohid bobom menga shayx va imom Abdulkarim ibn Musodan naql qilib, uning karomatlari haqida so‘zlab bergan edi. Zero, bizning bobomiz va mazhabdoshlarimizning kitoblarini hamda shayx imom Abu Mansur Moturidiyning “Kitobut Tavhid” va “Kitobut Ta‘vilot” asarlarining ma‘nolarini yaxshi o‘zlashtirgan edilar” [2]. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, “Dorul Iyodiya” aqidaviy maktabi Samarqandda Abu Nasr Iyodiyning (Moturidiyning ustoz) o‘g‘li Abu Ahmad Iyodiy tomonidan tashkil qilingan bo‘lib, bu inson ham Imom Moturidiyning suyukli shogirdlaridan bo‘lgan. Quyidagi fikrlar buning isbotidir: “Bu olim “Dorul Juzjoniy”da Imom Moturidiydan tahsil olgan va mashhur faqih darajasiga ko‘tarilgan. Abul Muin Nasafiy “Tabsirat al-adilla” asarida Moturidiyning shogirdi Abu Ahmadni katta maqtovlar bilan tilga oladi”. Demak, Abu Ahmad Iyodiy ham “Ahli hadis” g‘oyalarini ma‘qullaganlar.

Xulosa shuki, roman tariximizning qorong'u sahifasini yoritib, uning poetik jozibasini, g'oyaviy-estetik quvvati inson ruhiyatini yanada boyitib, go'zallashtiradi. Ezgulik, abadiyat, ilohiyot bobidagi fikrlarni charxlaydi. Luqmon Bo'rixonning "Imom Moturidiy" romani bugungi globallashuv davri adabiyoti va insoniyati uchun ma'naviy zaruratdir.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ziyodov Sh. Imom Moturidiy. "O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi" nashriyot-matbaa birlashmasi. 2022.
2. Оқилов С. Абул Муин ан-Насафий илмий мероси ва мотуридия таълимоти. Монография. – Тошкент: Муҳаррир, 2008.
3. Ibn Zakariyo Yahyo ibn Is'hoq. Sharhu jumali usulid din li Abu Salama Samarqandiy. Sulaymoniya kutubxonasi, Shahid Ali Posho bo'limi, №1648/II